

## **NEMIS TILI FRAZEOLOGIK IBORALARINING TARKIBIY VARIATSIYASI**

***Xolisxon Husainova Komiljonovna***

*Buxoro davlat pedagogika instituti nemis tili fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Nemis frazeologizmlarida birliklarning konseptual stereotiplarining nemischa tavsifi frazeologizmlarning paydo bo‘lishi va shakllanishi, birinchidan, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-siyosiy hayot, siyosiy-ma’naviy qarashlar, ikkinchidan lisoniy, ya’ni tilning pragmatik qonun qoidalari kabi omillar bilan uzviy aloqadordir.

**Kalit so‘zlar:** frazeologizmlarda pragmatik ma’no, konseptual stereotiplar, konsept ko‘rsatkichlari.

Frazeologik birliklarda konseptual stereotiplarining nemis frazeologiyasida tavsifi frazeologizmlarning paydo bo‘lishi va shakllanishi, birinchidan, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-siyosiy hayot, siyosiy-ma’naviy qarashlar, ikkinchidan lisoniy, ya’ni tilning pragmatik qonun-qoidalari kabi omillar bilan uzviy aloqadordir. Shunga ko‘ra konseptual ko‘rsatkichli frazeologik birliklarni pragmatik ma’no doimo tinglovchiga qaratilgan bo‘lib, tinglovchining fe’l-atvoriga, shaxsiyatiga ijobiy yoki salbiy tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa nemis tilida frazeologik birliklarning to‘liq pragmatik ma’no komponentlarining shakllanishiga asos bo‘ladi. Shunga ko‘ra professor A.M. Emirova pragmatik ma’noni – “so‘zlovchi - tinglovchi” munosabatlari sifatida ta’riflaydi. Frazeologik birliklarning pragmatik ma’nosini ekspressiv, apellyativ, fatik va estetik komponentlar orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Pragmatik ma’noning ekspressiv komponenti so‘zlovchining his-tuyg‘usini, bahosini tasvirlashdan iborat bo‘lib, lug‘atlarda frazeologizmlarning ekspressiv komponenti shutl, neodobr, prezr, prenebr. va h.k leksikografik pometalar va belgilar bilan beriladi. Masalan: “old geezer – (prezr.) aljiragan chol” frazeologizmlari so‘zlovchining nutq ob’ektiga nisbatan hurmatsizlik.

Frazeologik variantlarning tahlili jarayonida uzual va okkazional o‘zgarishlarni farqlash e’tiborga molikdir. Uzual frazeologik variantlarda umumfrazeologik ma’no saqlanadi, hech qanday semantik o‘zgarish ro‘y bermaydi. Shuning uchun ham ular frazeologik sinonimlardan farq qiladi. Masalan, “Die Hand im Spiel haben” iborasi “Die Hände” shaklida ham umumma’no saqlangan holda ishlatilishi mumkin. Yoki ba’zan otning kichraytirilgan formasi varianti ishlatiladi: etw. (wie) an der Schnur haben – etw. (wie) am Schnürchen haben. Frazeologik birliklar nutqda ham badiiy adabiyotda ham keng qo‘llaniladi. Nemis tilidagi badiiy adabiyotda qo‘llanilgan so‘z birikmalari va iboralarni ma‘nosini ochib berish bir muncha mashaqqatni talab etadi. Negaki, matnda qo‘llanilgan bir iboraning ikkita yoki uchta ma’nolari bo‘lishi mumkin va matnda kelganida turlicha tarjima qilinishi va izoh berilishi mumkin. Quyida ba’zi badiiy asarlardan olingan parchalarda frazeologizmlarning ishlatilish va tarjima qilinish o‘rinlarini ko‘rib chiqamiz.

Er gelobte sich im Stillen, seine Tapferen niemals zu verlassen und, wenn es sein musste, im Kampfe Seite an Seite mit ihnen in den Tod zu gehen. U o‘zicha, jasur jangchilarini hech qachon tashlab ketmaslikka, zarur bo‘lganda ular bilan yelkama-yelka turib o‘limga tik boqishga qasam ichdi. Bu matnda ham ikkita frazeologik birliklardan foydalanilgan. Seite-Seite so‘z birikmasi asliyatga tarjima qilinganda yonma-yon, birdam ma’nolarini beradi. Ammo kontekstda ishlatilishiga ko‘ra yelkama-yelka varianti mos keladi. In den Tod zu gehen-iborasi ham qotib qolgan, gehen fe’li bormoq, yurmoq ma’nolarini beradi. Bu iborada esa o‘z ma’nolarini ot bilan birga kelgan holda o‘zgartirgan. Sie gab noch ein Lebenszeichen von sich; als wir sie aus den erstarrten Fingern lusten, entblätterte sie. U hali tirik edi; biz uni toshdek qotgan barmoqlar orasidan ajratib olganimizda, u pitirlardi. Quyidagi gapda ham ein Lebenszeichen von sich geben turg‘un birikmasi tayyor holda qo‘llanilgan. Jumladan, aus den erstarrten Fingern so‘z birikmasi ijodkor badiiy bo‘yoqdan ko‘proq foydalangan. Es werden doch nicht die Usbeken sein, die uns umzingeln und in den Rücken fallen?”. Ular tag‘in bizni bosib olishni mo‘ljallagan Shayboniy jangchilari bo‘lmisin. Ushbu gapdag‘i so‘z birikmasi so‘zma-so‘z tarjima qilinganda boshqa ma’no yuzaga keladi. Biriktirilgan

holda esa bosib olmoq ma’nosida qo‘llaniladi. Der Henker hat gut acht auf sein Opfer, dass es ihm nicht entflieht, obgleich er heute morgen beide Hände voll zu tun hat. Jallod garchi bugun ishi boshidan oshib yotgan bo‘lsa ham, qochib ketmasin deb qurbanini nazardan qochirmay o‘tirardi. Ushbu gapda ham yuqoridagi gaplarga o‘xhash holatlarni ko‘rish mumkin. Nega endi beide Hände voll zu tun hat-iborasi o‘zbek tilida ishi boshidan oshib yotmoq kabi ma’noda ishlatilgan. Aslini olganda har ikkala qo‘li band deya ishlatilishi ham mumkin. Ammo tarjimon o‘zbek tiliga o‘girayotganda ushbu jihatlarni aniqroq ko‘rsatishga harakat qilgan. Taniqli adabiyotshunos G‘aybull Salomov frazeologik birliklarni o‘rganish jarayonida shunday ta’kidlagan. Agar mendan: tilda ham mo’jizalar bo‘ladimi? deb so‘rasalar men: agar bo‘lsa, tilning “mo’jizasi” undagi maqol, matal va idiomalardir deb javob bergen bo‘lar edim. Darhaqiqat, gapga badiiy bezak beruvchi, chuqur ma’no-mazmun beruvchisi frazeologizmlardir. G‘aybull Salomov rus tilidan maqol va idiomalarning tarjima qilinishi haqidagi izlanishlarida o‘zbek xalq maqoli bo‘lgan-olmaning tagiga olma tushar degan maqolni rus tilidan kirib kelgan degan fikrlarni ta’kidlagan. Ammo nemis tilida ham bu maqol mavjud. Der Apfel fällt nicht weit vom Stamm - olma tagidan yiroq tushmas. Demak, xalqlarning tili bir-biridan farq qilsada, ammo ularning hayot tarzi, madaniyati, kechinmalari bir-biriga o‘xshashdir.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, frazeologizmlar tilning asosiy leksik qatlami. Har bir tilning o‘z qotib qolgan so‘z birikmalari va iboralari mayuddir. Jumladan, nemis tilida ham. Shuningdek, nemis tilidagi ba’zi iboralar yuqorida misol, namunalarda ko‘rib chiqqanimizdek frazeologik biriklar har doim ham bir xil ma’noda qo‘llanavermaydi. Hamda so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi. Albatta, ularni o‘zbek tiliga talqin qilishda har bir qirrasiga e’tibor berilishi kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Bozorova R.Sh. “Tarjima san`ati va uning muammolari” NamDU ilmiy axborotnomasi 2019 yil 5-son.
2. Николенко Л.В. 2005. Современный русский язык: теория анализ языковых единиц в двух частях. Москва: Академия.
3. Бозорова Р.Ш. «О немецкой обиходной речи». НамДУ илмий ахборотномаси 2019 йил 3-сон.
4. Hayotova D.Z. National-cultural, linguoculturological features of the concept of Heimat (homeland) in German and Uzbek languages. Bukhara state university Received 22 ndApril 2021, Accepted 25thApril 2021, Online 15 th May 2021 d.z.hayotova@buxdu.uz